



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

XORAZM VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR



2024- YIL YANVAR - IYUN

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2024- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalari hajmi 6 015,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,5% ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 8,6 %ni yoki 521,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 493,5 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 91,4 %i o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar



Jami investitsiyalar
6 015,4 mlrd so'm
o'sish sur'ati 127,5 %



Markazlashgan investitsiyalar
521,9 mlrd so'm
o'sish sur'ati 78,1 %



Markazlashmagan investitsiyalar
5 493,5 mlrd so'm
o'sish sur'ati 135,6 %



O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar
267,4mlrd so'm

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar 3 624,4 mlrd so'm

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar
594,6 mlrd so'm

2024- yil yanvar-iyun

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



2024- yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 914,9 mlrd so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,2 %ini tashkil etdi.

Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,6%i yoki 1 116,1 mlrd so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 594,6 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 77,4 %ini yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,9 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd so‘m

**Respublika byudjeti
128,1 mlrd so‘m**



**Suv ta’mnoti va kanalizatsiya
tizimlarini rivojlantirish
jamg‘armasi
76,0mlrd so‘m**



**Tiklanish va taraqqiyot
jamg‘armasi
50,4 mlrd so‘m**



**O‘z.Respublikasi kafolati
ostidagi xorijiy kreditlar
267,4 mlrd so‘m**



**Korxona mablag‘lari
914,9mlrd so‘m**



**Aholi mablag‘lari
1 116,1mlrd so‘m**



**To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy
investitsiyalar va kreditlar
2594,6mlrd so‘m**




**Tijorat bank kreditlari va
boshqa qarz mablag‘lari
105,4mlrd so‘m**



Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 105,4 mlrd so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 1,7 %ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,8 %ni tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 267,4 mlrd so'm (4,4 % va 73,4 % ga ko'paydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 2 762,4 mlrd so'm (46,0 % va 247,9 % punktga ko'paydi), Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan – 128,1 mlrd so'm (2,1 % va 48,4 %ga kamaydi), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan – 76,0 mlrd so'm (1,3% va 196,4 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Xiva shahrida – 4,8 marta (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 649,3 mild so'm), Yangibozor tumanida – 2,6 marta (559,9 mlrd so'm), Qo'shko'pir tumanida – 163,6% (630,8 mlrd so'm), Hazorasp tumanida – 141,6 % (370,3 mlrd so'm), Urganch tumanida – 135,6% (703,8mlrd so'm).

2024- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


Shahar va tumanlar	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Viloyatdag'i ulushi
Xorazm viloyati	6 015,4	127,5	100,0
Urganch sh.	1 389,1	119,4	23,1
Xiva sh.	649,3	480,2	10,8
Bog'ot	182,2	130,3	3,0
Gurlan	88,4	54,6	1,5
Qo'shko'pir	630,8	163,6	10,5
Urganch	703,8	135,6	11,7
Hazorasp	370,3	141,6	6,2
Tuproqqa'l'a	247,7	76,7	4,1
Xonqa	279,6	107,5	4,6
Xiva	513,6	100,8	8,5
Shovot	277,2	85,9	4,6
Yangiariq	123,5	38,4	2,1
Yangibozor	559,9	263,0	9,3

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo'yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida – 23,1% (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1389,1 mlrd so'm), Urganch tumanida 11,7% (703,8mlrd so'm), Yangibozor tumanida 9,3 % (559,9 mlrd so'm), shundan eng quyi ulush esa Tuproqqal'a – 4,1 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (247,7 mlrd so'm), Gurlan tumanida 1,5% (88,4mlrd so'm), Yangiariq tumanida 2,1 % (123,5 mlrd so'm) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2024- yilning yanvar-iyunida 3004,1 ming so‘m yoki 125,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 9037,9 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan (117,4 martani) tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich Yangibozor tumanida 6033,9 ming so‘m (yoki 258,3 %), Xiva shahida 6558,9 ming so‘m (yoki 473,8 %) va Urganch tumanida 3281,1 ming so‘m (yoki 132,3%) darajada qayd etildi.

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish



0,0 km
uzunlikdagi gaz
tarmoqlari ishga
tushirildi

Umumiy maydoni
556,1 ming kv.m
bo'lgan turar joylar
ishga tushirildi



137,9 km
uzunlikdagi suv
tarmoqlari ishga
tushirildi



0,0 o'ringa
mo'ljallangan
maktabgacha ta'lif
muassasalari ishga
tushirildi



0,0
o'quvchi o'ringa
mo'ljallangan
umumta'lif maktablari
ishga tushirildi



Qishloq joylarda
504,2 ming kv.m
bo'lgan turar joylar
ishga tushirildi



Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarirlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ularidan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (%da)



66,9% Mashina, uskuna, inventar

28,7% Qurilish-montaj ishlari

4,4 % Boshqa xarajatlar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 28,7 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari – 66,9%, boshqa xarajatlarning ulushi 4,4 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (%da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1283,1mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 21,3 %, ishlab chiqarish sanoati – 2028,9 mlrd so'm (33,7%), qurilish – 186,5 mlrd so'm (yoki 3,1 %), sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 143,3 mlrd so'm (yoki 2,4 %), tashish va saqlash – 863,7 mlrd so'm (yoki 14,4 %) va boshqa faoliyat turlari – 1509,9 mlrd so'm (yoki 25,1 %).


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

Shahar va tumanlar	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish, mlrd so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish, nisbatan %da</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
Xorazm viloyati	3624,4	3357,0	100,0	60,3
Urganch sh.	762,7	633,8	21,0	54,9
Xiva sh.	567,4	567,4	15,6	87,4
Bog'ot	67,5	67,5	1,9	37,0
Gurlan	7,6	7,6	0,2	8,6
Qo'shko'pir	440,1	440,1	12,1	69,8
Urganch	409,2	409,2	11,3	58,1
Hazorasp	130,5	130,5	3,6	35,3
Tuproqqa'l'a	134,2	134,2	3,7	54,2
Xonqa	85,6	85,6	2,4	30,6
Xiva	418,2	279,7	11,6	81,4
Shovot	127,7	127,7	3,5	46,1
Yangiariq	28,9	28,9	0,8	23,4
Yangibozor	444,8	444,8	12,3	79,4

2024- yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiyligi tarkibida xorijiy investitsiyalar 3624,4 mlrd so‘mni tashkil etdi, shuningdek, 3357,0 mlrd so‘m xorijiy kreditlarga to‘g‘ri keldi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Xiva shahiga to‘g‘ri kelib, jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 87,4 %ni, Yangiariq tumanida – 23,4%, Gurlan tumanida – 8,6 % darajada kuzatildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish (mlrd so‘m)



Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 55,8 % yoki 3357,0 mlrd so‘mni, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘limgan xorijiy kreditlari – 60,3 % yoki 3624,4 mlrd so‘mni, shundan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya – 9,8 % yoki 594,6 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar – bu real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar (kapitalni shakllantiruvchi investitsiyalar);

Asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi;

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – umumiy kapitalda 10 foizdan kam bo'lмаган ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir;

O'stiriladigan (ekiladigan) aktivlar – mahsulot olish maqsadida ko'п martalik foydalaniladigan zotdor, mahsuldor, ishchi qoramaollar, bog'lar va boshqa ekinlar;

Intellektual mulkchilik mahsulotlari – o'zining ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilariga daromad keltiradigan, sotilishi mumkin bo'lgan tадqiqotlar, ishlanmalar, innovatsiyalar natijasidir;

Asosiy vositalarni kapital ta'mirlashga investitsiyalarga uskunalar, mashinalar, transport vositalarini (bunda asosan, agregatni to'liq qismlarga ajratish, eskirgan barcha qism va uzellarni almashtirish yoki tiklash, asosiy detal va qismlarni ta'mirlash, agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rish ishlari), bino va inshootlarni (eskirgan konstruksiya va detallarni almashtirish yoki ularni ta'mirlanayotgan obyektning foydalanish imkoniyatini oshiruvchi, yanada mustahkam va tejamkorlariga almashtirish) kapital ta'mirlashlarni o'z ichiga oladi;

Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar – yuridik shaxslar tomonidan yer uchastkalari, tabiatdan foydalanish obyektlarini; shartnomalar, ijara shartnomalari, litsenziyalarni (tabiat obyektlaridan foydalanish huquqini qo'shgan holda), ishchanlik obro'si va aloqalarini sotib olishga xarajatlar;

Ishlab chiqarilmagan aktivlarga mulkchilik huquqini o'tkazib berish bo'yicha xarajatlar – aktivlarni sotib olish va berib yuborish yoki mulkchilik huquqining o'zgarishi bilan bog'liq barcha xarajatlar. Mulkchilik huquqi o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- aktivlarni sotib olgan shaxs hamda ularni sotgan shaxs tomonidan amalga oshirilgan proffesional xizmatlarga yoki komission to'lovlarning barchasi; ularga huquqshunos, arxitektor, yer o'lchovchi, injener va baholovchilarga gonorarlar, shuningdek, auksion o'tkazuvchi va ko'chmas mulk agentlariga komission to'lovlari kiradi;
- sotib oluvchiga taqdim etilgan, hisob-fakturasida alohida ko'rsatilgan har qanday savdo va transport xarajatlari;
- aktivni sotib olgan shaxsning aktivga mulkchilik huquqini o'tishi bilan bog'liq barcha soliqlar;
- olinayotgan yoki berilayotgan aktivning qiymatiga kiritilmagan yetkazib berish, o'matish yoki buzish bilan bog'liq har qanday xarajatlar;
- aktiv mavjud bo'lgan davrning so'ngida amalga oshirilgan har qanday yakuniy xarajatlar, misol uchun, aktiv joylashgan joyda atrof muhitni muhofaza qilish yoki inshootni xavfsizligini ta'minlash uchun xarajatlar;

Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar – tabiiy resurslar, ijara va litsenziya kelishuvlari, shartnomalari, gudvil va marketing aktivlari.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Telefon: (62) 224-65-22

2024- yil yanvar-iyun